Volume 1, Issue 2

YOSHLARNI O‘Z VATANIGA SADOQATLI BO‘LISH RUHIDA TARBIYALASHDA MA’NAVIYAT VA MAFKURANING ROLI VA AHAMIYATI

Raxmatullayev S.A

O‘z Vataniga sadoqatli bo‘lish – bu har bir inson uchun yuksak burch sanaladi. Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub sifat tub o‘zgarishlarni amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu ulkan vazifani hal etish fuqarolarimizning ijodiy faoligini tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta’kidlanganidek, “Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, o‘nib-o‘sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo‘lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyosdir”.[1]

Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasi, xususan sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish masalalariga boshqa ustuvor vazifalar qatori alohida e’tibor berildi. Albatta, bu maqsadlarga erishishda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barkamol inson tarbiyasida va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda boshqa ko‘pgina mezonlar qatori ma’naviyat va mafkura alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ma’naviyat haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir: “Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir”.[2]

Xalqaro tajribadan keng foydalanish tizimini qayta takomillashtirish.Buning qanchalik muhimligini Baltazar Gratsianning quyidagi fikrlari orqali anglashimiz mumkin :”O’rganish, bilish kerak bo’lgan juda ko’p narsa bor.Lekin umr qisqa,bilimsiz hayot esa hayot emas.Bilimlarni o’zlashtirib olishning ajoyib vositasi bor – u ham bo’lsa boshqalarning tajriba va mehnatidir”[3]. To’g’rida, amaliyotda qo’llangan tajribani biz ham o’z mintalitimizga moslashtirgan holda talqin etsak,albatta o’z natijasini beradi .

Shu boisdan ham, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqea-xodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, har jihatdan barkamol yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida hal qiluvchi masalaga aylandi.

Mamlakatimizda ma’naviyat sohasida mustaqillikdan keyingi davrda sezilarli chora-tadbirlar amalga oshirilib, o‘zining amaliy natijasini berib kelmoqda. Davlatimiz rahbariyati tashabbuslari bilan ma’naviyat sohasidagi ishlarning uzoqni ko‘zlagan dasturlari ishlab chiqilib, komil inson, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash borasida o‘z samarasini beryapti. Bu tadbirlar uzoqni ko‘zlab rivojlantirilgan tartibda amalga oshirilmoqda.

Ma’naviyatni shakllantirish va uni kishi hayotining ayrilmas tarkibiy qismiga aylantirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uni birdaniga fuqaro ongida kamol toptirish bo‘lmaydi. Ma’naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo‘shishga, aql-idrok va zakovatini kengaytirib, mustahkamlashga xizmat qiladi. Ma’naviyat va ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbaidir.

Har bir millatning o‘z ma’naviyatini chuqur anglashi, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, e’tiqod va qadr hissini boyitadi. SHuning uchun ham istibdod davrida hukmron mafkura doirasida milliy ma’naviyatga e’tibor berilmadi,

[1] Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: Ўзбекистон, 2000, 3-бет.

[2] Очилова Б. Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва васийлик. Т.: Истиқлол, 2009, 15-бет.

[3] .”O’zgarmas mohiyat” / R.Grin. – Toshkent : O’zbekiston.2015 ..97-b. J.Safoyev (tarjimasi) 2015.

to‘g‘rirog‘i, u har jihatdan kamsitildi. Oqibatda, o‘zbek xalqining ma’naviy merosining ko‘pgina qatlamlarini o‘rganishdan mahrum bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o‘rganish undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviyatimizning qadimiyligini, mazmunan chuqurligi va rang-barangligi, bugungi kundagi salohiyati cheksiz ekanini to‘la ravishda ko‘rsatmoq uchun “Avesto”dan boshlab, Farobiy, Navoiy, Bobur, Furqat, Behbudiy, Furqat, CHo‘lpon va Avloniy orqali to hozirgi kunlargacha bo‘lgan yaxlit bir manzarasi yaratilmoqda.

Mustaqillik ayni paytda ma’naviyatning ajralmas qismi bo‘lgan milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o‘z-o‘zini aniqlash milliy his-tuyg‘ular, g‘ururni vatanparvarlikni o‘stirish va mustaxkamlashga ham yo‘l ochgani ta’kidlash zarur. Mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a’zolarining, har bir shaxs va ayniqsa, yoshlarning ma’naviy kamoloti, istiqlol g‘oyalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuqurroq kirib borishga bog‘liq.

Kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishda faol qatnashayotgan har bir fuqaro o‘z mamlakati, xalqi, millatining ajralmas bo‘lagi ekanini anglashi – milliy ma’naviyat va ongning tarkibiy qismidir.

Ilg‘or millat va rivojlangan davlat bo‘lishning xozirgi sharoitlaridan biri – boy ma’naviyatga ega bo‘lishdir. Shu sababdan Birinchi Prezidentimiz I.A.karimov: “Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi” deb ta’kidlaydi. SHunday ekan ma’naviyat va ma’rifatni ko‘tarish, targ‘ib qilish, boyitish, har bir fuqaroning yuksak ma’naviy darajasini ta’min etish eng dolzarb masalalardan biridir”.[4]

Haqiqatdan ham ma’naviyat qanchalik yuksak bo‘lsa, inson qalbida johillik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rniga yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, iymon, mas’uliyat va boshqa bir qator ijobiy fazilat xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o‘rin olib boraveradi.

Ana shu o‘ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g‘oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir.

“Jamiyatni ma’naviy yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash kabi muhim masalalardan iborat”.[5]

Inson ma’naviy olamning yuksalishi bilan turli holatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin muxtasar qilib aytganda, Olloxning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur nglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash-odamzodning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

Ma’naviyatning yana bir muhim xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qilishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Uzoqqa bormasdan, xalqimiz o‘z boshidan kechirgan mustamlaka davrini bir ko‘z oldimizga keltiraylik. Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma’nodagi qora kunlari bo‘lmish o‘sha zamonda bir paytlar o‘zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilmu madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og‘ir mashaqqatlarga duchor bo‘lganini yaxshi bilamiz.

[4] Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. Т.: Янги аср авлоди, 2002, 72-73 бетлар.
[5] Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Т.: Ўзбекистон, 2000, 23-бет.

Lekin ana shunday daxshatli davrda ham har qanday zulm va istibdodga qaramasdan, xalqimiz o‘zini, o‘zligini yo‘qotmadi. Tilini va dinini, iymon-e’tiqodini saqlab qoldi. Nohaqlik va zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg‘usi bilan yashagan haqiqiy vatanparvarlik insonlar etishib chiqadi.

“Zamon xalqlari tajribasi, ularning bosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta xayot kechirishi, o‘z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo‘yib yashashi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, o‘sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma’naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug‘iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu xayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi”.[6]

Biz bugungi kunda yoshlar ma’naviyati haqida so‘z borganda, bu borganda, bu boradagi qarashlarimizni shaklantirish, navqiron avlodni yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirishda muhim o‘rin tutadigan milliy g‘oyamiz, mafkuramiz to‘g‘risida to‘xtalmasdan o‘tolmaymiz. Chunki hozirgi taraqqiyot bosqichida nafaqat yoshlar balki jamiyatimizning barcha a’zolari orasida milliy g‘oya, mafkura, milliy ruh, shu asosda va vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari tobora kuchayib bormoqdaki, o‘z navbatida bularning barchasi yuksak ma’naviyatni shakllantiradigan asoslar hisoblanadi. Eng muhimi, bunday muqaddas tushunchalar odamlar tafakkuriga respublikamizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar bilan birgalikda singib bormoqda. Ayniqsa, ma’naviy-mafkuraviy ishlarning yagona tizim asosida aniq maqsadga qaratilgan holda olib borilayotganini ta’kidlash lozim.

Bu yo‘nalishdagi ishlarni aniq maqsad asosida yo‘lga qo‘yishda Birinchi Prezidentimizning 2001 yil 18 yanvarda imzolangan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar “ fanini o‘qitishda ta’limning interaktiv usullari, ilg‘or pedagogik texnalogiyalarni hamda kompyuter va multi-mediya vositalarini elektron versiyalarini joriy etish,uni ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar bilan to‘ldirish bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilinmoqda.SHuningdek, yurtimizda aholining ta’limdan tashqaridagi qatlamlari orasida ma’naviy-mafkuraviy ishlarni olib borish tizimiham shakllandi.

Demak yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mezonlaridan yana biri bo‘lgan mafkura hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.”Vatanparvarlik muayyan milliy madaniy, mafkura, e’tiqodlar asosida shakllanadi va rivojlanadi.SHu ma’noda hozirgi milliy istiqlol mafkurasi mustaqil O‘zbekiston vatanparvarligiiningnazariy asosini tashkiletadi.SHu mafkura asosida shakllangan vatanparvarlik milliy birlik va birdamlikni kuchaytirishga imkon beradi.”[7]

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, faoliyat, ijtimoiy faollik tushunchalari umumfalsafiy va ijtimoiy mohiyatga ega. Buni inson va jamiyatga berilgan turli-tuman ta’riflar isbotlaydi. *“Ta’lim so’z va o’rgatish bilangina bo’ladi . Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o’rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy mlakalaridan iborat bo’lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo’lishidir*” [8].

Xulosa qilib aytganda, bizning yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarimizdan ma’lum bo‘lmoqdaki, o‘quvchi va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviyat va mafkura suv bilan haqodek zarur. Ma’naviyat va mafkurasiz hench qachon etuk insonni tarbiyalab bo‘lmaydi. CHunki odamzod uchun hayot yo‘llarida har qadamda zarur bo‘ladigan ajdodlar yodi, milliy g‘urur va iftixor, jonajon Vatanga muhabbat, sadoqat, ota-onaga hurmat, insoniy fazilatlar aynan

[6] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008, 28-29 бетлар.

[7] Қодиров Б Комил инсон тарбиясининг педагогик асослари .Т.Меҳнат ,- бет

[8] Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Farobiy / Tarjimonlar: A.Irisov, M.Mahmudov, U.Otajon. –Toshkent : Yangi asr avlodi, 2016. b-284.

ma’naviyat, mafkura orqali uning ongu tafakkuriga singib boradi, hayotining ma’no-mazmuniga aylanadi.

Shuning uchun ham ma’naviyat va mafkura yoshlarning parvozini ta’minlaydigan, kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadigan qanot ekanini unutmagan holda, ularning o‘z Vataniga sadoqat ruhida tarbiya toptirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

